



INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINI PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Muallif: Ikramova Malikabonu Azizovna ¹

Affiliyatsiya: Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti psixologiya kafedrası tayanch doktoranti ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15187131>

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik mahoratni rivojlantirish dolzarb muammolardan biri bo'lib qoldi. Chunki hozirgi vaqtda ta'lim muassasalari bitiruvchilariga talablar oshdi, ularning ijodiy uzoq umr ko'rishlari va yuqori professionalligi faqat psixologik jihatdan yaxshi bo'lsagina rivojlanishi mumkinligi o'z isbotini topdi. Zamonaviy ta'limning eng muhim vazifalaridan biri Ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik mahoratni rivojlantirishga e'tibor qaratishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, ta'lim, o'rganilayotgan til, xorijiy til, chet tili, psixologiya

KIRISH

Jahon ta'lim va ilmiy markazlarida ingliz tili o'qituvchilarini kasbiy mahoratini oshirishning zamonaviy modellarini amaliyotga tadbiq etilmoqda. Xorijiy tillari mutaxassislarini tayyorlashda CEFR (Common European Framework of Reference for Language) malaka talablari asosida oliy ta'lim mazmuni va sifatini xalqaro darajaga ko'tarish, APA ga ko'ra o'qituvchi kasbiy faoliyati samaradorligini oshirish, kasbiy mahorat darajasiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari o'lib borilmoqda. Bu borada o'qituvchi sha'ninini tiklashi, uning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash uchun olib borayotgan siyosati bugun butun jahon siyosatchilari tomonidan e'tirof etilishi, uning timsoli zamon talabi darajasida kamol topishi hamda boshqalar uchun o'rnak bo'la olishi, shuningdek, o'qituvchi yillar o'tsa-da o'z ustida ishlashi va zamon bilan hamnafas bo'lishida kasbiy mahorat zarur va shart ekanligi, uni shakllantirishga yo'naltirilgan masalalarga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik mahoratni rivojlantirish dolzarb muammolardan biri bo'lib qoldi. Chunki hozirgi vaqtda ta'lim muassasalari bitiruvchilariga talablar oshdi, ularning ijodiy uzoq umr ko'rishlari va yuqori professionalligi faqat psixologik jihatdan yaxshi bo'lsagina rivojlanishi mumkinligi o'z isbotini topdi. Zamonaviy ta'limning eng muhim vazifalaridan biri Ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik mahoratni rivojlantirishga e'tibor qaratishdan iboratdir. Ayni paytda, o'quv muhiti ingliz tili o'qituvchilari pedagogik mahoratiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan bir qator xususiyatlarga ega. Xususan, ular quyidagilarni o'z ishiga oladi;

3

- maktabga moslashish muammolari;
- kasbiy o'zini o'zi belgilash;
- muhim intellektual yuk;
- psixo – emotsional stress;
- shaxslararo munosabatlar muammolari;
- mustaqil faoliyatning yetarli tajribasi;
- o'z vaqtini oqilona tashkil qila olmaslik va hokazo.

ADABIY YONDASHUV

A.V.Yegorovning ta'kidlashicha, kasb bu shunday faoliyatki, uning yordamida shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi va uning yashashi uchun moddiy vositalar asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi

Kasb – jamiyatga zarur bo'lgan faoliyatning tarixan yuzaga kelgan shakllaridir. Uni bajarish uchun inson bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisiga mos keluvchi qobiliyat va pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim.

Keltirilgan ta'riflarni umumlashtirgan holda, aytish mumkinki, kasb mehnat faoliyatining paydo bo'lgan shakllari, ularni bajarish uchun inson, albatta, ma'lum bilim va ko'nikmalarga, maxsus qobiliyatlar va shakllangan muhim pedagogik mahoratga ega bo'lishlari kerak. Ma'lumki, pedagogik mahoratning pedagogshaxsida shakllanishi undagi kasbiy shakllanishining rivojlanishiga turtki beradi.

Kasbiy shakllanish – muayyan bir sohani takomillashtirishga qaratilgan bilim, ko'nikmalar majmuyi.

Kasbiy shakllanish – ta'lim olish jarayonida u yoki bu sohaga doir bilim, ko'nikmalar majmuyi.

Kasbiy shakllanganlik – ahamiyatga ega kasbiy natijalarga erishish va faoliyatini yuqori darajada amalga oshirish imkonini beruvchi psixik sifatlari majmuyidir.

Pedagogik mahorat – shaxsning muayyan sohadagi bilim, ko'nikmalari, malakalari majmui va mehnat faoliyatida o'z qobiliyatini sifatli va samarali amalga tadbiq etish imkoniyatidir.

Ko'pgina jahon va xorij olimlarining ta'kidlashicha, bugungi kunda pedagogik mahoratning shakllanishi o'zining ahamiyatlilik darajasiga ko'ra inson ehtiyojlari orasida birinchi o'ringa ko'tarilmoqda. Mazkur tuchuncha ijtimoiy nazariy va amaliy muammolari majmuasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, pedagogika va psixologiyada markaziy o'rinni egallaydi. Pedagogik mahoratning iqtisodiy, ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy sharoitlar ta'sirida o'zgaruvchi alohida turlari tadqiq qilingan va boshqalar.

Maishiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohadagi yangi muammolar doimo kasbiy mezonlar dinamikasini talab qiladi va bu esa olimlarni kasbiy o'zini o'zi anglashga, shaxsning kasbiy shakllanishi muammosini nazariy g'oyalar bilan boyitishga intilishlarini kushaytiradi.

Dj.Zonnenfeld pedagogik mahorat kasbiy shakllanish jarayonida yuzaga kelishi va shakllanishini ta'kidlab o'tadi. Karyeraning o'sishi turli pedagogik mahoratning o'zgarishi bilan kuzatiladi. Alohida, xususiy pedagogik mahorattan bir oz umumiyroq konseptual sifatlarga o'tish sodir bo'ladi. Aynan konseptual sifatlarning karyeradagi o'sishini va kasbiy shakllanish bosqichini aniqlab beradi

Pedagogik mahorat muammosini tadqiq qilishda kasbiy muhit ta'sirida inson o'zining verbal va noverbal xatti-harakatini qayta qurish vaziyatlari batafsil yoritilgan adabiyotlarga e'tibor qaratish lozim. Shunday qilib, inson xulq-atvorining faoliyat va mehnat jamoasi talablari bilan muvofiqligini tadqiq qilish

Dj.Xollandning tipologik nazariyasi, faoliyatga yaroqlilik nazariyalarida o'z aksini topdi. Bu yondashuvlar doirasida faoliyat va ijtimoiy muhitning mehnat natijasiga va mehnatdan qoniqqanlikka, individning salomatligi va boshqalarga ta'sirining turli jihatlari o'rganilgan.

Xorij adabiyotlarida pedagogik mahoratning barqarorligi va dinamikasiga nisbatan qarama-qarshi nuqtai nazarlar ansha ko'p. Xususan, ularda pedagogik mahoratning o'zgaruvchanligi va vaziyatining tavsifnomasi kontekstiga bog'liq ekanligi e'tibor etiladi. Insonda umuman chegaralangan, doimiy pedagogik mahorat mavjud yemas: u o'zgaruvchan va uning o'zgarishi insonni o'rab turgan jamoaga bog'liq. Pedagogik mahorat boshqa insonlar bilan suhbat jarayonida namoyon bo'ladi va subyektlarning muloqot qilish xarakteri bilan taqqoslanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" O'RQ-637-son Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr. <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida. PF-60 son Farmoni. 28 yanvar, 2022 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-sonli «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha shakllantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-sonli Farmoni. 8 oktyabr, 2019 yil.
6. O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-son Qarori. 6 noyabr, 2020 yil.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - 2021 yillarda Oliy ta'lim tizimini kompleks shakllantirish dasturi. PQ-2909 son Qarori. 24 aprel, 2017 yil.